

---

## «Tasviriy va amaliy san'at festivali» o'tkazildi

Qo'qon tasviriy va amaliy san'at kollejida an'anaviy «Tasviriy va amaliy san'at festivali» o'tkazilmoqda. «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»ga bag'ishlangan ushbu festivalning ochilishida shahar hokimi Ma'rufjon Usmonov ham ishtirok etib, ko'rgazmalar bilan yaqindan tanishdi.

estivalga O'zbekiston Badiiy akademiyasi badiiy ijodkorlar uyushmasi «Eski shahar» ijodiy guruhi ham tashrif buyurdi. Ijodiy guruh a'zolari Abduhakim Karimov, Dilorom Mamedova, Dilmurod Yo'ldashevlar kollejning tasviriy va amaliy san'at kafedrasini mutaxassis o'qituvchilari bilan birgalikda «Rangin olam» nomli ijodiy ishlar ko'rgazmasini tashkil qilishdi. O'quvchilarga mahorat darslari o'tkazildi.

2019-05-01 07:10:16